

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AZIZKULOVA SHAXNOZA URUNOVNA

**ILOVA ALOQAGA ASOSLANGAN SINTAKTIK QURILMALARNING
O‘ZIGA XOS KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(nemis tili materialida misolida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Azizkulova Shaxnoza Urunovna

Пова aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalarning o‘ziga xos kommunikativ-pragmatik xususiyatlari (nemis tili materiali misolida) 3

Азизкулова Шахноза Уруновна

Коммуникативно-прагматические особенности синтаксических конструкций, основанных на присоединительной связи (на материале немецкого языка).. 25

Azizkulova Shakhnoza Urunovna

Specific communicative-pragmatic features of syntactic constructions based on the connecting constructions (based on the German language)..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AZIZKULOVA SHAXNOZA URUNOVNA

**ILOVA ALOQAGA ASOSLANGAN SINTAKTIK QURILMALARNING
O‘ZIGA XOS KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(nemis tili materialida misolida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3781 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchi.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begmatov Muxtor Begmatovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Suleymanova Nilufar Jabbarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Axmedov Anvar Botirovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "17 aprel" 2026-yil soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62973-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "2" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil "2" aprel dagi № 20 -raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalarning lingvistik mohiyati, ularning badiiy matnda ifodalanishi bilan bog‘liq kommunikativ-pragmatik xususiyatlar va tuzilishini aniqlash masalasi ko‘plab tadqiqot ishlarining obyekti bo‘lib kelmoqda. Bunday qurilmalar o‘zining o‘rganilish tarixiga ega bo‘lgan grammatik hodisa hisoblanib, hozirgacha tilshunoslik fani doirasida muhim va nisbatan kam o‘rganilgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Aytish joizki, ko‘p hollarda ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar va uning ko‘plab xususiyatlari, asosan, grammatik nuqtai nazardan tadqiq qilingan, ammo unga bog‘liq bo‘lgan kommunikativ, pragmatik va boshqa xususiyatlar matn doirasida nisbatan kam o‘rganilgan. Tadqiqot obyektiga tizimli yondashuv asosida ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalarni matn doirasida kommunikativ-pragmatik jihatdan tahlil qilish, ular ma‘nosining badiiy matnda ifodalanish zaruratining yuzaga kelishi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligidan darak beradi.

Dunyo tilshunosligida ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar, sintaktik munosabatlar sohasida namoyon bo‘ladigan jarayonlar, ularni o‘rganish, tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar doimiy ravishda amalga oshirilayotganiga qaramasdan, ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar kommunikativ-pragmatik ma‘nosining badiiy matn tarkibida yoyilishi va ifodalanishi masalalari ko‘pgina tillar materiallari asosida to‘liq va chuqur o‘rganilmagan. Shuning uchun ham badiiy matnlarda ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar kommunikativ-pragmatik ma‘nosining ifodalanishini o‘rganishga zarurat mavjud. Ana shu asnod, mazkur muammolarni hal qilish uchun tilshunoslikda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq keng miqyosda islohotlar olib borildi. Ta‘lim, fan taraqqiyoti sohasida olib borilgan ishlar diqqatga sazovordir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida o‘z ifodasini topgan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida respublika oliy ta‘lim tizimini xalqaro ta‘lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida ta‘lim dasturlarini jahonda tan olingan xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish”¹ vazifasi belgilangan. Bunday vazifalar ijrosini ta‘minlashda ham tilshunoslik bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, tilni chog‘ishtirishga bag‘ishlangan izlanishlarga bo‘lgan zarurat ortib boradi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barcha sohalarida fanning rolini oshirish, mamlakatning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan ishlar xorijiy tillarni har tomonlama chuqur o‘rganish, ularni turli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar va izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sintaktik munosabatlar, ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar ma‘nosining badiiy matnda

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

ifodalanishini tadqiq qilish hamda ularni kommunikativ-pragmatik jihatdan tavsiflash zarurati mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sintaktik qurilmalarga kiruvchi ilova qurilma, parsellyatsiya, ajratish hodisasi bo‘yicha L.A.Aznabayeva, Y.A. Azovtseva, O.O.Atadjanova, M.J.Vays, A.P.Velichuk, J.A.Vintman, M.T.Gaipova, N.N.Golikova, L.G.Gorbunova, A.K.Draganov, M.L.Makarov, M.E.Ryabova, L.J. Sokolova, N.K.Filonova, M.E.Shafiro² va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

² Aznabaeva L.A. Коммуникативная оппозиция «говорящий – адресат» // Коммуникативно-функциональное описание языка: Сб. науч. ст. – Уфа: БашГУ, 2001. – С. 8-12; Азовцева Ю.А. Коммуникативно-стилистическая вариантность на уровне высказывания (обособление и парцелляция) // Уч. зап. МГПИИЯ им. М.Тореза. – Т. 55. – М., 1970. – С. 3-11; Атаджанова О.О. Парцелляция текстов жанра массовой коммуникации: Автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 1988. – 24 с.; Вайс М.Я. Синтаксические структуры диалогической речи немецкого языка и их стилистическое использование в современной немецкой литературе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1964. – 24 с.; Величук А.П. О специфике присоединительной связи в современном русском языке: (сочинение и присоединение): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тбилиси, 1961. – 16 с.; Вентман Ж.А. Присоединительные конструкции, имеющие форму членов предложения, в современном французском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1973. – 30 с.; Гаибова М.Т. Присоединительные конструкции и их стилистические функции в художественной прозе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1973. – 21 с.; Голикова Н.Н. Функциональные свойства явления присоединения в немецком языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Минск, 1986. – 24 с.; Горбунова Л.Г. Типология и средства выражения присоединительных отношений в бессоюзном сложном предложении: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1990. – 19 с.; Драганов А.К. Коммуникативно-прагматический аспект художественного текста // Вопросы синтаксиса и стилистики текста в современном немецком языке: Межвуз. сб. науч. тр. – Пятигорск: ПГПИИЯ, 1986. – С. 166-178; Макаров М.Л. Коммуникативная структура текста. – Тверь: Твер. гос. ун-т, 1990. – 52 с.; Рябова М.Э. Коммуникативно-прагматические компоненты высказывания в современном немецком языке // Филологические заметки: Межвуз. сб. науч. тр. – Саранск: Мордов. ГПИ, 1999. – С. 110-113; Соколова Л.И. Присоединительные конструкции в современном немецком языке как явление коммуникативного синтаксиса:

German tilshunosligida ilova qurilmalar, parsellyativ va ajratilgan bo‘laklarni tadqiq qilish, ularning stilistik, grammatik, semantik, sintaktik va hokazo xususiyatlari muammolari bilan bog‘liq masalalar H.Altman, J.L.Austin, M. Baldegger, M.Myuller, G.Shnayder, A.Naf, U.Engel, W.Franke, M.Hartig, H. Henne, S.K.Levingson, J.Maybauer, J.Shitalla, H.Vaynrix³ va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarining obyekti sifatida ko‘rib chiqilgan.

Sintaktik qurilmalar masalalari, xususan, ilova hodisasi, ilova qurilmalar, parsellyatsiya, ajratilgan bo‘laklar muammolari bo‘yicha o‘zbek tilshunoslaridan B.T.Tursunov, B.M.Axmedova, M.Begmatov, A.A.Gafforov, A.A.Mambetniyozova, I.U.Mamasoliyev, M.R.Rahimov, M.A.Kuchiyevlar⁴ tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ular o‘z tadqiqot ishlarida ilova hodisasini sintaktik aloqaning alohida turi ekanligini ko‘rsatib, ilova hodisasi, ikkinchi darajali bo‘laklar (to‘ldiruvchilar) orqali ifodalangan ilovali elementlarning funksiyalari, parsellyatsiya hodisasi, ajratilgan bo‘laklarning lingvistik xususiyatlari, ilova qurilmalarning hozirgi zamon nemis badiiy adabiyotida stilistik va pragmatik jihatdan qo‘llanishi, frazeologizmlarning ilovali element sifatidagi xususiyatlari masalalarini ma‘lum darajada tadqiq qilishgan. Tilshunoslikda mazkur sohada olib borilgan yuqorida tilga olingan tadqiqotlar so‘zsiz ilova hodisasi, ilova qurilmalar muammolarini yechishga ma‘lum darajada hissa qo‘shgan. Ushbu mulohazalar bizga ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar kommunikativ-pragmatik ma‘nosining badiiy matnda ifodalanishini tadqiq etish imkonini berdi.

Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1977. – 20 с.; Филонова Н.К. Парцелляция полипредикативных высказываний в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1982. – 20 с.; Шафиро М.Е. Присоединение как явление речевого синтаксиса: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 1965. – 23 с.

³ Altmann H. Formen der “Herausstellung” im Deutschen. Rechtsversetzung, Linksversetzung, Freies Thema und verwandte Konstruktionen / Linguistische Arbeiten 106. Hrsgg. H.E. Brekle, H.J. Heringer. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1981. – 369 S.; Austin J. L. Zur Theorie der Sprechakte. Deutsche Bearbeitung von Eike von Savigny. – Stuttgart: Philipp Reclam Jun., 1972. – 219 S.; Baldegger M., Müller M., Schneider G., Naf A. Kontaktschwelle Deutsch als Fremdsprache. – Berlin/ München/ Wien/ Zürich/ New York: Langenscheidt, 1993. – 505 S.; Engel U. Syntaktische Besonderheiten der deutschen Alltagssprache // Sprache der Gegenwart. Gesprochene Sprache. Band XXVI. Jahrbuch 1972. Hrsg. Hugo Moser. – Düsseldorf: Pädagogischer Verlag. – Schwann, 1974. – S. 199–225; Franke W. Elementare Dialogstrukturen. Darstellung, Analyse, Diskussion / Reihe Germanistische Linguistik. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1990. – 186 S.; Hartig M. Erfolgsorientierte Kommunikation. Wege zur kommunikativen Kompetenz. – Tübingen und Basel: A. Francke Verlag, 1997. – 223 S.; Henne H. Sprachpragmatik: Nachschrift einer Vorlesung. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1975. – 120 S.; Levinson S.C. Pragmatik. Ins Deutsche übersetzt von U. Fries. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1990. – 421 S.; Meibauer J. Pragmatik: Eine Einführung. – Tübingen: Stauffenburg Verlag, 1999. – 208 S.; Schwitalla J. Gesprochenes Deutsch: Eine Einführung / Grundlagen der Germanistik. Hrsg. Von W. Besch und H. Steinecke. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 1997. – 222 S.; Weinrich H. Textgrammatik der deutschen Sprache. – Mannheim/ Leipzig/ Wien/ Zürich: Dudenverlag, 1993. – 1111 S.

⁴Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 44 с.; Ахмедова Б.М. Лион Фейхтвангер ижодида илова ходисаси. Филол.фан.номз. ... дис. – Самарқанд, 1998 й. – 187 б.; Бегматов М. Тўлдирувчилар билан ифодаланган иловали элементларнинг функциялари. Филол.фан.номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 1999. – 24 б.; Гаффаров А. А. Ҳозирги ўзбек тилида парцеллятив ва иловали қурилмалар синтактик деривацияси. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Самарқанд, 1997 й. – 26 б., Мамбетниязова А.Х. Ҳозирги замон немис тилида тўлдирувчиларнинг ажратилган бўлак сифатида бажариб келадиган коммуникатив-прагматик функциялари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис. – Самарқанд, 2021 й. – 160 б., Мамасолиев И.У. Ҳозирги немис тилида илова конструкцияларнинг стилстик-прагматик функциялари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис. автореф. – Самарқанд, 2022. – 56 б.; Rahimov M.R. Badiiy matnda ilova qurilma struktur-semantik ma‘nosining ifodalanishi. Filol. fan.boyicha falsafa doktori (PhD) ... dis. avtoref. – Samarqand, 2023. – 50 b.; Kuchiyev M.A. Hozirgi zamon nemis tilida frazeologizmlar ishtirok etgan ilova qurilmalar: struktur-semantik tahlil. Filol. fan. boyicha falsafa doktori (PhD) ... dis. avtoref. – Samarqand, 2024. – 48 b.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari" mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matnda ilova aloqaga asoslangan qurilmalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash, shuningdek, matn tahlili nuqtai nazaridan tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

sintaktik qurilmalar, ilova hodisasi, iloval element, badiiy matn kabi tushunchalarni tahlil qilgan holda tadqiqotning nazariy asosini aniqlash;

ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmaning lingvistik tahlili asosida iloval elementlarning kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilish hamda yoritib berish;

hozirgi zamon nemis tili ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalardagi iloval elementlar leksik tarkibiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash va ularning kommunikativ-pragmatik tomonlarini o'rganish;

ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmadagi iloval elementlarni kommunikativ-pragmatik jihatdan tahlil qilish asosida ushbu qurilma tarkibidagi birliklarni funksional-semantik xususiyatlarini tavsiflash.

Tadqiqotning obykti nemis tilidagi badiiy asarlar matnlarida qo'llanilgan ilova aloqaga asoslangan qurilma tarkibidagi iloval elementlardan iborat.

Tadqiqotning predmetini badiiy matndagi ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodlari sifatida ishda komponent tahlil, tasnifiy tahlil, kommunikativ-pragmatik tahlil, shuningdek, lingvistik tasvirlash va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi zamon nemis badiiy adabiyotlari matnlarida qo'llanadigan semantik-sintaktik birliklar, ilova hodisasi, ilova aloqaga asoslangan qurilma, iloval element, badiiy matn kabi tushunchalarni nemis yozuvchilarning asarlaridan olingan faktik materiallar-misollar asosida tahlil qilgan holda tadqiqot ishining ilmiy-nazariy asosi aniqlangan;

ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalarning lingvistik tahlili asosida tilning semantik-sintaktik va stilistik tahlil vositalari bajarib keladigan turli funksiyalari yordamida iloval elementlarning kommunikativ o'ziga xosliklari ochib berilgan;

hozirgi zamon nemis tilida ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar tarkibidagi iloval elementlarning leksik-grammatik xususiyatlari hamda ularning kommunikativ-pragmatik jihatdan ajralib turishi til birliklarining ma'no qirralari va sinonimlik munosabatlari asosida dalillangan;

ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmadagi iloval elementlarni kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish asosida ushbu qurilma tarkibidagi birliklardan tashkil topgan ilova qurilmalar funksional-semantik vazifalarni bajarib kelishi badiiy matndan olingan ko'p sonli misollar yordamida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmaning tahlili asosida iloval elementlarning struktur jihatdan turlari va kommunikativ xususiyatlari aniqlangan, tahlilga tortilgan lisoniy birliklar kommunikativ xususiyatining badiiy asarlar matnlarida qoʻllanish darajasi koʻrsatib berilgan.

ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmadagi iloval elementlarning leksik tarkibiga xos boʻlgan xususiyatlari aniqlangan va ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari oʻrganilgan, ushbu qurilmaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari bilan bogʻliq tomonlari hamda funksiyalari tilshunoslik, nazariy va amaliy grammatika, leksikologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik va oʻquv qoʻllanmalarining takomillashuviga yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy yondashuvlar, tahlil metodlari, yaratilgan nazariyalar va lingvistik konsepsiyalarning qoʻllanganligi, tahlilga tortilgan katta hajmdagi faktik material va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishidagi nazariy holatlarga muvofiqligi, tahlil hamda natijalarning asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlillar asosida olingan natijalardan ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilma kommunikativ-pragmatik tadqiqining keyingi rivojlanishida, shuningdek, boshqa tillar materiallarida olib boriladigan ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa oliy taʼlim tizimida “Nazariy grammatika”, “Leksikologiya”, “Matn tahlili” kabi fanlardan darslik va oʻquv qoʻllanmalar yaratishda, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Matn lingvistikasi”, “Zamonaviy lingvistika” kabi maxsus kurslarni oʻqitishda, bitiruv malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish mumkinligi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar, ishlanma hamda takliflar asosida:

hozirgi zamon nemis badiiy adabiyotida qoʻllanadigan sintaktik birliklar – ilova hodisasi, ilova aloqaga asoslangan qurilma, iloval element va badiiy matn kabi tushunchalar yozuvchilar asarlaridan olingan misollar asosida tahlil qilinib, ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmadagi iloval elementlarning leksik tarkibiga xos boʻlgan kommunikativ-pragmatik xususiyatlariga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillari institutida amalga oshirilgan AQSHning Oʻzbekistondagi elchixonasi tomonidan 2022-2024-yillarga moʻljallangan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 14-iyundagi 1790/02-sonli maʼlumotnomasi). Natijada ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmadagi iloval elementlarning leksik tarkibiga xos boʻlgan xususiyatlari aniqlangan va ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari oʻrganilgan, ushbu qurilmaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari bilan bogʻliq tomonlari hamda funksiyalari tilshunoslik, nazariy va amaliy grammatika, leksikologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik va oʻquv qoʻllanmalarining takomillashuviga xizmat qilgan;

ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalarning lingvistik tahlili asosida tilning badiiy tasvir vositalari bajarib keladigan funksiyalar yordamida ilovali elementlar kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lishiga doir mulohazalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR- 3181 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 21-iyundagi 04/2699-sonli ma'lumotnomasi). Natijada hozirgi zamon nemis tilida ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar lingvistik jihatdan tahlil qilinib, tilning badiiy tasvir vositalari bajaradigan funksiyalari asosida ilovali elementlarning kommunikativ xususiyatlari ochib berilgan. Bu esa o'qituvchi va talabalarning tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik hamda badiiy muloqot sohalaridagi bilimlarini chuqurlashtirish, shuningdek, til tizimi bilan bog'liq muammolarning amaliy yechimiga qaratilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

hozirgi zamon nemis tilida ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmalar tarkibidagi ilovali elementlarning leksik xususiyatlari hamda ularning pragmatik o'ziga xosligi til birliklarining ma'no jihatlari va sinonimlik munosabatlariga oid xulosa va yechimlardan Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 2-iyul kuni efirga uzatilgan "Sifatli ta'limni rivojlantirish jamg'armasi" ko'rsatuvining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025- yil 1- iyuldagi 233 - sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmaning tahlili asosida ilovali elementlarning struktur jihatdan turlari va kommunikativ xususiyatlarining badiiy asarlar matnlarida qo'llanish darajasi ko'rsatib berilgan, bu esa tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratgan hamda davlat ta'lim muassasasining ilmiy-ijodiy faoliyatini takomillashtirish, yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va tarbiyalashda, shuningdek, asosiy chora-tadbirlarni amalga oshirishda ma'lum darajada manba bo'lib xizmat qilgan;

hozirgi zamon nemis badiiy adabiyotlarida qo'llanadigan ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmadagi ilovali elementlarni kommunikativ-pragmatik jihatdan tahlil qilish asosida ushbu qurilma tarkibidagi birliklarni funksional-semantik xususiyatlari haqidagi xulosalardan Qoraqalpoq davlat universitetida 2024 yilda amalga oshirilgan «П3-20170930309 «Qoraqalpoq folklori tilining adabiy til rivojiga tasiri masalasi» loyihasi doirasida foydalanilgan (23.04.2024 № 01-20-02/2492-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nemis yozuvchilarning asarlaridan olingan misollar tahlili asosida tadqiqotning nazariy asosi aniqlangan hamda ilova aloqaga asoslangan sintaktik qurilmadagi ilovali elementlarning semantik tarkibiga xos bo'lgan xususiyatlari va ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari o'rganilgan, ushbu qurilmaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari bilan bog'liq tomonlari hamda funksiyalari tilshunoslik, nazariy va amaliy grammatika, leksikologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining takomillashuviga yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shu jumladan xorijiy jurnallarda 3 ta, respublika jurnallarida 4 ta ilmiy ish e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy tilshunoslikda ilova hodisasi muammosi”** nomli birinchi bobida hozirgi nemis tilida ilova qurilmalarning lingvistik tabiati, ularning sintaktik birliklar doirasidagi o‘rni va gapni murakkablashtirishdagi roli yoritiladi. Ilova hodisasining umumtilshunoslik hamda german tilshunosligida o‘rganilishi, shuningdek, parsellyativ va ilovalı tuzilmalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar tahlil qilinadi. Bu qurilmalar struktur-semantik xususiyatlari va kommunikativ-pragmatik funksiyalari nuqtayi nazaridan baholanadi.

Ilova qurilmalari zamonaviy sintaksisda grammatik, semantik va pragmatik funksiyalarni birlashtiruvchi muhim birliklardan biri sifatida o‘rganiladi. Ayniqsa, nutqdagi tafsilotlarni aniqlab berishda va uslubiy ko‘lamni ken”gaytirishda ilovalar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tilshunos V.V. Vinogradov ta‘kidlaganidek, ilova konstruksiyalarida ko‘pincha “bitta semantik sathda bo‘lmagan” birliklar uyg‘unlashadi, biroq ular orasida intonatsion va ma‘naviy bog‘lanish mavjud bo‘ladi⁵.

Zamonaviy tilshunoslikda ilova hodisasi faqat turg‘un sintaktik model sifatida emas, balki kommunikativ vaziyatga moslashuvchi pragmatik birlik sifatida ham talqin etiladi. Jumladan, Ch. Morris tomonidan ilgari surilgan pragmatika yondashuvi doirasida ilovaning matn tuzilishidagi roli, aytuvchining niyati va auditoriyaga ta‘siri kontekstda tahlil qilinadi⁶.

Tadqiqotchilar ilovani murakkab gap doirasida tahlil qilish bilan birga, uni mustaqil semantik blok sifatida ko‘rib chiqadilar. I.S. Valgina ta‘kidlaganidek, “ilova gapning boshqa bo‘laklariga izoh, aniqlik yoki sharh beruvchi qo‘shimcha birlik sifatida faoliyat ko‘rsatadi”⁷. G.I. Kustova esa ajratilgan aniqlovchilar va ilova konstruksiyalari orasidagi semantik va sintaktik tafovutlarga urg‘u beradi⁸.

⁵ Виноградов В.В. Основные вопросы синтаксиса предложения // Избр. тр. Исследования по русской грамматике. –М.: Наука, 1975. –С. 254 - 294.

⁶ Morris Ch. W. Grundlagen der Zeichentheorie. Asthetik und Zeichentheorie. Ubersetzt von R. Posner. – Munchen: Hanser, 1972. – 129 S.

⁷ Валгина Н.С. Синтаксис современного русского языка. –М.: Агар, 2000. –416 с.

⁸ Кустова Г.И. Синтаксис современного языка / Г.И.Кустова, К.И.Мишина, В.А.Федосеев. –М.: Академия, 2007. –256 с.

Zamonaviy german tilshunosligida ilova (Apposition, Nachtrag) sintaktik birlik sifatida alohida o'rganilib, u morfosintaktik va semantik murakkablikka ega bo'lgan tuzilma sifatida til egasining tasniflash, aniqlik kiritish va identifikatsiya qilish ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Ilova nutqda asosiy ifodaga qo'shimcha tarzda ulanib, uni izohlaydi, aniqlashtiradi yoki to'ldiradi, shu orqali informativlik darajasini oshiradi va kommunikativ aniqlikni ta'minlaydi.

Nemis tilida ilova hodisasi ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) Bog'lanma (integral) ilova, bu turdagi ilova morfosintaktik jihatdan asosiy ot bilan uzviy bog'liq bo'lib, gapning ajralmas tarkibiy qismi sifatida vergulsiz qo'llanadi; 2) Izohlovchi (erkin) ilova esa asosiy komponent bilan sintaktik jihatdan erkin munosabatda bo'lib, vergul bilan ajratiladi va ko'proq stilistik yoki izohlovchi funksiyani bajaradi.

Ular morfologik moslashuv, sintaktik holat va intonatsion belgilar bilan ajratiladi. Ilova grammatik birlik bo'lish bilan birga, stilistik vosita hamdir: u ta'kidlash, kontekstni boyitish va kommunikativ niyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ilova hodisasi ajratish va parsellyatsiya bilan yaqin bog'liq. Ajratish – mustaqil kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan nutq bo'lagi, parsellyatsiya esa intonatsion-semantik bo'linishdir. Ikkalasi ham nutqda “yangi” ma'lumotni ajratish yoki ifodaning markazini o'zgartirishga xizmat qiladi.

Ayrim olimlar bu hodisalarni kommunikativ-stilistik variantlar sifatida ko'radi⁹. Masalan, ajratilgan a'zo gapda ma'no mustahkamlash, aniqlik kiritish funksiyasini bajaradi.

Nemis tilidagi ramka konstruksiyasi (chekli va cheksiz fe'l qismlarining orasiga gap bo'laklarini joylashtirish) uzoq masofali bo'linishga olib keladi. Bunday struktura og'zaki nutqda adresatga maksimal informatsiya yetkazishni ko'zlab, semantik yuklamani oshiradi. Shuning uchun gapda ramkadan tashqariga chiqarish (Ausklammerung) holatlari yuz beradi – bu esa ajratish, parsellyatsiya va ilovaga yaqinlashadi. Natijada, ajratish, ilova qilish va parsellyatsiya turli darajada bir-biriga yaqin bo'lgan hodisalar sifatida namoyon bo'ladi¹⁰.

Ilova konstruksiyalari asosiy qism va bitta yoki bir nechta ilovali komponentlardan iborat. Ilovali bo'laklar odatda postpozitsiyada kelsa-da, pozitsion harakatchanlikka ega. Ularning tarkibiy-semantik birlik sifatida nutqda ajratilishi esa kommunikativ va pragmatik niyat bilan bog'liq.

Parsellyatsiya “bo'lingan nutqning” ifodalanishi bo'lib, bunda gapning strukturaviy bo'linishi yoki unga komponent qo'shilishi ilova qilish sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, parsellyatsiya ayrim holatlarda ilovali tuzilmalar bilan sinonim tarzda tahlil qilinadi.

⁹ Азовцева Ю.А. Коммуникативно-стилистическая вариантность на уровне высказывания (обособление и парцелляция) // Уч. зап. МГПИИЯ им. М.Тореза. – Т. 55. – М., 1970. – С. 3-11; Руднев А.Г. Синтаксис осложненного предложения. — М.: Учпедгиз, 1959. - 198 с.

¹⁰ Riesel E., Schendels E. Deutsche Stilistik. – Moskau: Verlag Hochschule, 1975. – 316 S.; Шишкова Л.В. Замечания о присоединении в современном немецком языке // Актуальные вопросы семантики и синтаксиса: Сб. науч. тр. - Л.: ЛГПИ, 1977. – С. 35-40; Голикова Н.Н. Функциональные свойства явления присоединения в немецком языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Минск, 1986. - 24 с.

Ilova va parsellyatsiya hodisalari zamonaviy sintaksisda o‘ziga xos sintaktik birliklar sifatida e‘tirof etilib, ularni farqlash masalasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ilovani ayrim olimlar gapning statik jihati bilan, parsellyatsiyani esa dinamik va stilistik tUSDagi vosita sifatida ko‘radi. Bu ikki hodisa ko‘plab hollarda kontekstual-semantik tahlil asosida ajratilishi mumkin¹¹.

Ilova va parsellyatsiya hodisalarini farqlovchi ayrim tilshunoslar ba‘zi bir farqlarni ta‘kidlaydilar. Quyida biz ularning fikrlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy tilshunoslikda “ilova” va “parsellyatsiya” hodisalarining sintaktik, semantik, stilistik va funksional xususiyatlarini farqlovchi mezonlar asosida tahlil etishga harakat qilamiz.

1-jadval

Ilova va parsellyatsiyaning farqlovchi belgilari

Farqlovchi mezon	Ilova	Parsellyatsiya	Manba yoki olim
Gapning tabiati	Statik	Dinamik	A. Skovorodnikov
Sintaktik rol	Qo‘shimcha grammatik birlik	Stilistik vosita	A. Skovorodnikov
Ajratilish darajasi	Konstanta (ba‘zan ajraladi)	Pauza bilan aniq ajratiladi	L.Surovenkova
Semantik birlik	Mustaqil gapga teng	Bitta gap doirasida	L.Surovenkova
Stilistik xoslik	Kitobiy nutqqa xos	Og‘zaki nutqqa xos	L.Maksimov
Qo‘llanish uslubi	Kodlangan adabiy matn	Adabiy va og‘zaki matn	Yu.Vannikov
Termin ifodasi	Shakllanish jarayonini bildiradi	Natijani bildiradi	L.Shishkova
Ajratilish imkoniyati	Qat‘iy ajratilish qiyin	Qisman ajratiladi	V.Babayseva
Predikatlar holati	Gradatsiya, izohlovchi fe‘llar	Tiklanayotgan bo‘laklar	V.Babayseva
Funksional vazifa	Qo‘shimcha kommunikativ ma‘no	Modal nuqtai nazardan ajratiladi	L.Surovenkova

Jadvalda bu ikki til hodisasi bir-biridan qanday jihatlar bilan ajralib turishi aniq ko‘rsatib berilgan. Har bir mezon bo‘yicha taqqoslash tegishli manbalar yoki olimlarning fikrlariga tayangan holda keltirildi. Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, ilova va parsellyatsiya o‘zaro bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ular til tizimida turli funksiyalarni bajaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nemis tilidagi ilova hodisasi – bu faqat sintaktik emas, balki kommunikativ, stilistik va semantik jihatdan ham kompleks tahlilni talab qiluvchi muhim til birliklaridandir. Badiiy matnlar tahlilida ilova orqali asosiy mazmun boyitilib, gapning ekspressivligi va kommunikativ kuchi oshiriladi.

Dissertatsiyaning “**Ilova qurilmaning kommunikativ xususiyatlari (badiiy matn tahlili asosida)**” deb nomlangan ikkinchi bobida ilova qurilmalarining gapdagi kommunikativ funksiyalari, strukturaviy modellari va badiiy matndagi ifodaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ilova orqali qo‘shimcha

¹¹ Суровенкова Л.С. Присоединение и парцелляция в современном французском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 1982. – 24 с.

axborotning aniqlik, tafsilot va ekspressivlik bilan yetkazilishi, uning turli uslubiy qatlamlardagi kommunikativ yuklamasi hamda semantik-sintaktik munosabatlar asosidagi roli ochib beriladi. Ilova qurilmalarining turlari va ularning matn ichidagi vazifalari konkret misollar asosida ko‘rib chiqilib, ularning badiiy nutqdagi stilistik va pragmatik ahamiyati asoslanadi.

Badiiy matnlarda ilovalı birliklar muallif pozitsiyasini kuchaytirish, obrazlilik yaratish va tinglovchining e‘tiborini kerakli obyektga qaratishda muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Shu bois, ilovaning kommunikativ-funksional tabiati uning grammatik rolıdan ustun qo‘yiladi.

Ushbu nuqtai nazarnı mustahkamlovchi asosiy nazariyalar – Graysning hamkorlik tamoyili¹², nutq aktlari nazariyasi¹³, Praga maktabi konsepsiyasidagi aktual bo‘linish g‘oyalari¹⁴ hisoblanadi. Grays tamoyillariga ko‘ra, ilovalı birliklar nutqdagi miqdor, sifat, munosabat va usul maksimallariga mos ravishda axborot yetkazuvchanligini oshiradi. Masalan, ilova miqdor tamoyili asosida qo‘shimcha ma‘lumot berib, tinglovchining tushunchasini to‘ldiradi; sifat maksimali orqali esa ilova aniq va ishonchli axborot taqdim etadi.

Quyidagi jadval ilova qurilmalarining Grays tamoyillari bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi:

2-jadval

Ilovalı birliklar va Grays tamoyillari o‘rtasidagi munosabat

Grays tamoyili	Ilova bilan bog‘liq holat	Kommunikativ maqsad
Miqdor	Qo‘shimcha izoh, tavsif berish	Yetarli axborot taqdim etish
Sifat	Ilovada aniq va ishonchli ma‘lumot berish	Ishonchlilikni oshirish
Munosabat	Asosiy fikrga aniqlik kiritish	Tegishlilikni ta‘minlash
Usul	Tartib bilan keltirilgan qo‘shimcha fikr	Tushunarlılikni ta‘minlash

Shuningdek, Praga maktabi olimlari tomonidan ilgari surilgan gapning aktual (tematik-rematik) bo‘linishi nazariyasi ilova vositasida axborotni gapning kommunikativ markaziga yaqinlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ilova, ayniqsa parsellatsiyali konstruktsiyalar kontekstida, so‘zlovchining subyektiv niyatlarini ifodalovchi vosita sifatida tilning kommunikativ strategiyasiga xizmat qiladi¹⁵.

¹² Грайс П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике: Вып. 16. Лингвистическая прагматика. Сборник: Пер. с разн. яз. / Общ. ред. Е.В. Падучевой. -М.: Прогресс, 1985.-С. 217 -237.

¹³ Конрад Р. Вопросительные предложения как косвенные речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике: Вып. 16. Лингвистическая прагматика. Сборник: Пер. с разн. яз. / Общ. ред. Е.В. Падучевой. -М.: Прогресс, 1985. -С. 349-383.

¹⁴ Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения // Пражский лингвистический кружок: Сб. ст. - М.: Прогресс, 1967. — С. 239 -246; Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. - М.: Высшая школа, 1974. -319 с.; Амирова Т. А. Из истории лингвистики XX века. – М.: ЧеРо, 1999. – 106 с.

¹⁵ Судариков А.Г. К вопросу о сущности актуального членения в текстовом аспекте // Язык и текст: прагматический аспект исследования: Сб. науч. тр. - Стерлитамак: Стерлит. ГПИ, 1999. - С. 82 – 88; Бенвенист Э. Общая лингвистика. - М.: Прогресс, 1974. - 447 с.; Степанов Ю.С. В поисках прагматики (Проблема субъекта) // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз. -Т. 40. - 1981. -№ 4. - С. 325-332; Арутюнова Н.Д. Некоторые типы диалогических реакций и «почему»- реплики в русском языке // НДВШ. «Филологические науки». - 1970. - №3.-С. 44-58

Demak, ilova qurilmalar grammatik birlikdan tashqari, kommunikativ strategiyaning faol vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nutq samaradorligini oshiradi, muloqot kontekstida tushunarlik, aniqlik va izchillikni ta‘minlaydi.

Ilova qurilmalari odatda ikkinchi darajali sintaktik bo‘laklar – aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol – shaklida namoyon bo‘ladi. Ular gap ichidagi va gaplararo aloqada, turli sintaktik vositalar orqali yuzaga chiqadi: bog‘lovchili va bog‘lovchisiz, sodda yoki murakkab, to‘liq yoki to‘liqsiz gaplar orqali.

Der Fall hat sich auf die Pferde ausgebreitet. Die Pferdeschwärme schmolzen und gingen auf der Stanitsa-Zuteilung. Und hier kroch gerade dann ein schwarzes Gerücht durch die Gassen und Straßen. (Frisch M. Homo faber. 66 S.)

Wenn ich Geld gehabt hätte, hätte ich so einen nicht weggeschnappt. Und der Zigeuner ist ein verspielter Mensch, fröhlich, wie ich ... Aber hier ist ein Pferd. (Walser M. Der Augenblick der Liebe. 88 S.)

Zamonaviy nemis tilida ilova qurilmalari “und”, “aber”, “oder”, “denn”, “weil” kabi teng va tobe bog‘lovchilar yordamida keng qo‘llaniladi. “Und” bog‘lovchisi vaqtni bildiruvchi “jetzt”, “nun”, “dann” kabi ravishlar bilan birgalikda ketma-ketlik yoki syujetning rivojlanishini ifodalaydi:

Hier haben die kleinen Kosaken gezeugt, sich mit der Wirtschaft zu versammeln, um reich zu werden. Steuern im sechsundzwanzigsten Ali im siebenundzwanzigsten Jahr waren, nun ja, relativ. Und jetzt ist es wieder rückwärtsgegangen. (Walser M. Tod eines Kritikers. 22 S.)

Ilova qurilmalari orqali yuzaga kelgan sintaktik strukturalar og‘zaki nutqni imitatsiya qiluvchi muallif uslubida ham, obraz monologida ham, matndagi syujet burilishlarida ham faol qo‘llaniladi. Ular matn ichida tematik rivoj, emotsional kuchlanish va stilistik dinamizmni ta‘minlash orqali badiiy ifodaning muhim qatlamini tashkil etadi.

Zamonaviy nemis badiiy matnlarida ilova qurilmalari sintaktik jihatdan erkin, stilistik jihatdan esa yuqori ekspressivlikka ega bo‘lgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular asosiy bayon tarkibiga izoh, aniqlik, emotsional chuqurlik olib kiradi va shu yo‘l bilan matnning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

Qiyosiy bog‘lovchilar – wie, genau, als ob, angeblich – ilovada o‘xshatish, gumon, taxmin asosida asosiy fikrni kengaytiradi. Bu birliklar yordamida tuzilgan gaplar, odatda, intonatsion pauza bilan ajratilib, matnga stilistik va tematik parallellik olib kiradi:

Also wohnen wir zusammen. Im Sommer hier und im Winter in Moskau bei Polyanka. Ich lebe jetzt seit elf Jahren bei ihnen. Wie der eigene. (Frisch M. Homo faber. 200 S.)

Bu yerda „*Wie der eigene*“ ilovali elementi qisqa, ammo semantik jihatdan boy qiyosiy ilova bo‘lib, yaqinlik va o‘zlik g‘oyasini ifodalaydi.

„Damit“ bog‘lovchisi esa ko‘pincha maqsadga yo‘naltirilgan ilova gaplarda qo‘llaniladi.

Ich würde mich vor die Arbeiter stellen und ehrlich meinen Fehler eingestehen. Damit sie verstehen, dass der Fehler aus einem Impuls herauskam, aus dem Wunsch zu helfen. (Regener S. Herr Lehmann. 212 S.)

Ushbu gapda ilova bayon sababini emas, maqsadini ko‘rsatadi.

Werden wir jemals wieder aus der fremden Macht der Mode aufsteigen? Damit unsere Leute klug und schwungvoll sind, obwohl sie uns sprachlich nicht als Deutsche betrachteten. (Remarque E.M. *Die Nacht von Lissabon*. 269 S.)

Bu misolda esa ilovali element orqali keng qamrovli ijtimoiy maqsad ifodalanadi va ilova grammatik jihatdan tobe bo'lsa-da, intonatsion mustaqillikka ega.

Ba'zida „damit“ og'zaki nutqda yuklama sifatida ham paydo bo'ladi:

„*Damit es war nicht mehr!*“ – bu yerda emotsional portlash ifodalangan stilistik ilova shaklidir.

Shart, sabab va vaqt bildiruvchi birliklar – wann, tschüss, wenn, so, obwohl – ham ilova vazifasida qatnashadi.

Ich hatte einmal einen. Wann sie den Don überquerten. (Walser M. *Der Augenblick der Liebe*. 46 S.)

Bu yerda ilovali element grammatik jihatdan tobe gap bo'lsa-da, intonatsion mustaqilligi uni ilova sifatida talqin qilishga asos beradi.

Ilova bog'lovchilar orqali emas, balki modal ravish, olmosh, ravishdoshlar yordamida ham yuzaga chiqishi mumkin:

Wenn wir fünf Meilen von der Insel entfernt sind, lassen Sie es mich wissen. Übrigens gibt es nicht den geringsten Sinn, sich zu wehren. (Remarque E.M. *Die Nacht von Lissabon*. 44 S.)

Ilova qurilma tarkibidagi „übrigens“ komponenti bu yerda yangi mavzuga o'tish, ohangdorlik yaratish vositasi sanaladi.

Bog'lovchisiz ilova qurilmalari esa badiiy matnda eng erkin va stilistik jihatdan samarali shakl bo'lib, quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Agar matnda sifatdosh yoki ravishdosh oborotlar allaqachon ajratilgan bo'lsa, muallif ularni alohida ko'rsatish, urg'u berish uchun bog'lovchisiz ilova sifatida ishlatadi.

Alex saß in der Ecke im Schatten des Fenstervorhangs. Stirnrunzelnd, düster. (Walser M. *Tod eines Kritikers*. 202 S.)

Bu yerda “Stirnrunzelnd, düster” – mustaqil gap emas, lekin asosiy fikrga ohang va ruhiy holat qo'shuvchi ilova hisoblanadi. Bu ifoda matnga psixologik zo'riqish va intonatsion kuch bag'ishlaydi.

2. Ba'zida ilova izoh yoki aniqlik beruvchi shaklda kelib, uzoq pauza orqali asosiy bayondan ajraladi. Bu usul o'quvchining diqqatini shu tafsilotga qaratishga yordam beradi.

Das Land ist gut! Tauride... (Regener S. *Herr Lehmann*. 137 S.)

“Tauride...” – qisqa, ammo mazmunli ilova bo'lib, asosiy gapdagi “Land” so'ziga aniq joy nomini qo'shadi va badiiy ta'sirni kuchaytiradi.

3. Agar aniqlovchi yoki hol gap oxirida keltirilsa, bu ham bog'lovchisiz ilovaga sabab bo'ladi. Ayniqsa, teskari tartibda joylashgan qismlar ilovani ajratib ko'rsatadi.

Schließlich haben wir nicht mit einer Auszeichnung gerechnet, aber wir haben sie bekommen. Plötzlich. Award. (Dürrenmatt F. *Der Richter und sein Henker*. 51 S.)

“Plötzlich. Award” – bu yerda kutilmagan hodisani emotsional va stilistik jihatdan ajratib ko'rsatadi, matnga dramatism olib kiradi.

4. Ba‘zi qismlar aniq sintaktik bog‘lanishsiz, erkin kiritilgan bo‘lsa ham ilova sifatida ishlaydi.

Geben Sie mir in einer Stunde neues Material. Über ihn. (Walser M. Tod eines Kritikers. 144 S.)

“Über ihn” – qisqa va mustaqil ko‘rinsa-da, oldingi gapdagi mavzuni aniqlashtiradi. Shu tarzda u matnga izoh va tushunarlilik olib kiradi.

5. Agar asosiy gapda noaniq so‘z (masalan, olmosh) ishlatilgan bo‘lsa, ilova orqali bu so‘z aniqroq qilib beriladi.

Nur an einer Stelle haben uns die Deutschen bedrängt. Farbners. An der rechten Flanke. (Walser M. Der Augenblick der Liebe. 193 S.)

“Farbners. An der rechten Flanke” – ilova sifatida asosiy gapdagi “einer Stelle” iborasiga aniqlik kiritadi. Bu uslubiy usul matnga harbiy dramani kuchaytiruvchi ohang bag‘ishlaydi.

Bog‘lovchisiz ilovalar – tovushsiz urg‘u, semantik kuchaytirish va stilistik ifoda vositasi sifatida og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi chegara buzilishini ta‘minlaydi. Ushbu konstruksiyalar sintaktik zanjirda uzilish, intonatsion bo‘linish va emotsional turtki vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilova qurilmalarining eng keng tarqalgan ko‘rinishlari bog‘lovchisiz, izohlovchi yoki aniqlovchi birliklar asosida quriladi. Ular asosiy ifoda bilan turlicha sintaktik munosabatda bo‘lib, muloqotda ma‘no nozikliklarini hosil qiladi. Ayniqsa, nemis tili materiallarida ularning badiiy matnlardagi funksional yuklamasi, personajlarning ichki kechinmalarini ifodalashda qo‘llanishi kuzatiladi.

Ilova qurilmalarining kommunikativ xususiyatlari ularning matndagi joylashuvi va shakliga bog‘liq bo‘lib, quyidagicha turlarga ajratiladi:

1. **Birikuvchi qo‘shilmalar** – asosiy ifodaga bir nechta qo‘shimcha birliklar ketma-ket qo‘shiladi:

“Emilia Adams spielte... und er wollte, dass sie so schnell wie möglich aufhören zu fallen möglich...” (Remarque E.M. Die Nacht von Lissabon. 277 S.)

2. **Aniqlovchi ilovalar** – asosiy bayonni semantik jihatdan to‘ldiradi:

“Und dieses Lied vermittelte, was nicht im Roman stand...” (Dürrenmatt F. Der Richter und sein Henker. 60 S.)

3. **Yakunlovchi ilovalar** – gap oxirida kelib, oldingi bayonni umumlashtiradi yoki izohlaydi:

“...ein goldgelber Strahl platzt plötzlich... – und jetzt ist wieder alles getrübt.” (Frisch M. Homo faber. 169 S.)

4. **To‘liq bo‘lmagan ilovalar** – formal jihatdan birikmagan, ammo semantik jihatdan bog‘langan:

“Und Davydov, ja und alle Vorstandsmitglieder...” (Frisch M. Homo faber. 114 S.)

Bu turlarning barchasi ilova qurilmalarining kontekstga mos pragmatik yuklama hosil qilishini ta‘minlaydi. Ayniqsa, so‘zlovchining axborotga bo‘lgan munosabati, fikrni izohlash yoki aniqlashtirish kabi maqsadlar ushbu qurilmalar orqali ifodalanadi¹⁶.

¹⁶ Виноградов А.А. Структура и функции присоединительных конструкций в современном русском литературном языке: автореф. дис... канд. филол. наук. –М., 1984. –16 с.; Mamasoliev I.U. Hozirgi nemis tilida

Nemis tilidagi ilova qurilmalaridan biri – zidlovchi bog‘lovchili model bo‘lib, bu konstruktsiyalar “aber” bog‘lovchisi orqali ifodalanadi. Biroq ular oddiy qo‘shma gaplardan farqli tarzda intonatsion urg‘u va sintaktik mustaqillik asosida ilova sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan:

“*Natürlich äußerten sich in ihm manchmal der Gutsbesitzer und der Steppenbewohner; aber er war immer noch ein netter Mensch.*” (Walser M. *Der Augenblick der Liebe*. 240 S.)

Bu kabi segmentlar grammatik bog‘lanishga ega bo‘lsa-da, semantik jihatdan qarama-qarshi munosabatni ifodalaydi. Shunga o‘xshash holat quyidagi misolda ham kuzatiladi:

“*...und befiehlt sogar, sich zu Füßen zu beugen.*” (Dürrenmatt F. *Der Richter und sein Henker*. 27 S.)

Bu yerda strukturaviy tenglik mavjud bo‘lsa-da, hissiy-intonatsion zidlik asosiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ilova qurilmalari asosan og‘zaki nutq vositalari sifatida shakllanadi va asosiy fikrga izoh, tafsilot, emotsional urg‘u kiritadi¹⁷. Ular rematik birlik sifatida, ya‘ni yangi va muhim axborot tashuvchisi sifatida xizmat qiladi va sintaktik bog‘lanmagan bo‘lsa ham, semantik butunlikni ta‘minlaydi.

Ilova qurilmalarining nemis tili sintaksisidagi o‘rni ularning strukturaviy xilma-xilligi va kommunikativ vazifalari bilan belgilanadi. Quyidagi jadvalda bu tasnif soddalashtirilgan holda ko‘rsatilgan:

3-jadval

Nemis tilida uchraydigan ilova qurilmalarining asosiy strukturaviy modellari, ularning tuzilish xususiyatlari va kommunikativ ahamiyati

№	Model nomi	Tuzilish xususiyati	Kommunikativ ahamiyati
1	Bog‘lovchisiz izohlovchi ilova	Asosiy ifodaga tinish belgilari bilan ajralgan izoh birikadi	Asosiy ma‘lumotni izohlaydi yoki kengaytiradi
2	Birikuvchi bog‘lovchili ilova	“und”, “oder” kabi bog‘lovchi bilan bog‘lanadi	Bayon etilgan fikrni to‘ldiradi va aniqlik kiritadi
3	Zidlovchi (kontrastiv) ilova	“aber” yordamida asosiy fikrga zid mazmun qo‘shiladi	Qarama-qarshi nuqtai nazarni bildiradi, urg‘u beradi
4	Nominal ilova	Ot+ot tuzilmasida, aniqllovchi sifatida ishlatiladi	Shaxs yoki predmetning ijtimoiy holati yoki funksional vazifasini ko‘rsatadi
5	Ko‘p komponentli ilova	Bir nechta ilovalar ketma-ket joylashadi	Obrazni kengaytiradi, emotsional ohang yaratadi
6	Tugallanmagan ilova	Grammatik moslik buzilgan, lekin semantik aloqadorlik bor	Ekspressiv-pragmatik mazmun orqali ta‘sirchanlikni kuchaytiradi
